

**HOZIRGI DAVRDA ARAB TILI MANBALARINING XALQARO  
MIQYOSDAGI AHAMIYATI HAQIDA**

O'zbekiston davlat Jahon tillari  
universiteti Tarjimonlik fakulteti

2- kurs 2321-guruh talabasi

**Kudaygeldiyeva Gulayna Bekpulat qizi**

Ilmiy rahbar: **Tikaev Gusein,**

**Usmonova Nodira**

E-mail: gulaynaqudaygeldieva@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada arab tili manbalarining hozirgi zamonda xalqaro miqyosdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Arab tili, tarixan, ilm-fan, madaniyat va islom dinining asosiy tili bo'lib kelgani ta'kidlanadi. Hozirgi davrda arab tilidagi manbalar iqtisodiyot, diplomatiya, texnologiya va ilmiy tadqiqotlar sohalarida katta rol o'yynamoqda. Maqolada arab dunyosining global iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki, moliya va savdo sohasidagi arab tilidagi ma'lumotlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, arab tilidagi adabiyot va san'at asarlarining xalqaro miqyosda e'tibor qozonayotgani va madaniyatlararo muloqotni kuchaytirayotgani haqida so'z yuritiladi. Arab tilidagi tarixiy va akademik manbalar insoniyat tarixi, ilmiy izlanishlar va ta'lim jarayonlari uchun muhim ahamiyatga ega ekani, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirishdagi roli alohida qayd etiladi. Shu bilan birga, arab tilining madaniy aloqalar va ijodkorlikni global maydonga olib chiqishda tutgan o'rni ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** arab tili, madaniyat, tarix, adabiyot va sanat, diplomatiya.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается международное значение арабских источников в современную эпоху. Подчеркивается историческая роль арабского языка как основного языка науки, культуры и ислама. В настоящее время арабские источники играют важную роль в области экономики, дипломатии, технологий и научных исследований. В статье акцентируется внимание на активном участии арабского мира в глобальной экономике и важности информации на арабском языке в сфере финансов и торговли. Также обсуждается, как арабская литература и искусство получили мировое признание, способствуя межкультурному диалогу. Исторические и академические источники на арабском языке отмечаются за их значимость в изучении истории человечества, научных исследованиях и образования. Кроме того, подчеркивается роль арабского языка в продвижении современных технологий и инноваций. Статья также выделяет вклад арабского языка в укрепление культурных связей и развитие творчества на международной арене.

**Ключевые слова:** арабский язык, культура, история, литература, искусство, дипломатия.

**Abstract:** This article explores the international significance of Arabic sources in the modern era. It highlights the historical role of Arabic as the primary language of

science, culture, and Islam. Currently, Arabic sources play a critical role in the fields of economics, diplomacy, technology, and scientific research. The article emphasizes the active participation of the Arab world in the global economy and the importance of Arabic-language information in finance and trade. It also discusses how Arabic literature and art have gained global recognition, fostering intercultural dialogue. Arabic historical and academic sources are noted for their significance in human history, scientific studies, and education. Additionally, the role of Arabic in advancing modern technologies and innovations is underscored. The article further highlights Arabic's contribution to strengthening cultural connections and promoting creativity on the global stage.

**Key words:** Arabic language, culture, history, literature and art, diplomacy.

**التعليق:** في هذا المقال، يُناقِشُ أهميَّة المصادرُ الْعَرَبِيَّةُ لِلْغُوَّةِ العَرَبِيَّةِ فِي العَصْرِ الْحَالِيِّ عَلَى الْمُسْتَوَى الدُّولِيِّ. وَيُشارُ إِلَى أَنَّ اللُّغَةَ الْعَرَبِيَّةَ كَانَتْ تَارِيخِيًّا لُغَةُ الْعِلْمِ وَالثِّقَافَةِ وَالدِّينِ الْإِسْلَامِيِّ. وَفِي الْوَقْتِ الْحَالِيِّ، ثُوَّدَى المصادرُ الْعَرَبِيَّةُ دُورًا هَامًا فِي مَحَالَاتِ الْاِقْتِصَادِ، وَالْدِّيْلُومَاسِيَّةِ، وَالْتِقْنِيَّةِ، وَالْبُحُوثِ الْعِلْمِيَّةِ. يُبَرِّزُ المَقَالُ مُشارِكَةَ الْعَالَمِ الْعَرَبِيِّ فِي النَّشَاطِ الْاِقْتِصَادِيِّ الْعَالَمِيِّ، وَأَهْمَيَّةِ الْمَعْلُومَاتِ الْمَكْتُوبَةِ بِالْلُّغَةِ الْعَرَبِيَّةِ فِي مَجَالِيِّ التِّجَارَةِ وَالْمَالِيَّةِ. كَمَا يَنْتَرِقُ إِلَى اِشْتَهَارِ الْأَدَبِ وَالْفُنُونِ الْعَرَبِيَّةِ عَلَى الْمُسْتَوَى الدُّولِيِّ، وَدُورُهَا فِي تَعْزِيزِ الْحِوَارِ بَيْنِ الْقَوَافِتِ تُمَثِّلُ الْمَصَادِرُ الْتِارِيْخِيَّةُ وَالْاَكَادِيمِيَّةُ الْعَرَبِيَّةُ أَهْمَيَّةً كَبِيرَةً لِتَارِيخِ الْإِنْسَانِيَّةِ، وَالْبُحُوثِ الْعِلْمِيَّةِ، وَعَمَلِيَّاتِ التَّعْلِيمِ. كَمَا أَنَّهُ يُشارُ إِلَى دُورِهَا فِي تَطْوِيرِ التِّقْنِيَّاتِ الْحَدِيثَةِ وَالْاِبْتِكَارِاتِ. إِضَافَةً إِلَى ذَلِكَ، يُؤَكِّدُ عَلَى مَكَانَةِ الْلُّغَةِ الْعَرَبِيَّةِ فِي تَعْزِيزِ التَّوَاصُلِ الْتِقْنِيِّ وَالْإِبْدَاعِ عَلَى السَّاحَةِ الْعَالَمِيَّةِ.

**الكلمات المفتاحية:** اللغة العربية، الثقافة، التاريخ، الأدب و الفنون، الدبلوماسية

## Kirish

Arab tili manbalari hozirgi davrda xalqaro miqyosda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Ular nafaqat ilm-fan va madaniyat, balki iqtisodiyot va diplomatiya sohalarida ham muhim ro‘l o‘ynamoqda. Arab tili, tarixan, islam dinining islam davrining asosiy tili sifatida rivojlanib kelgan, bu esa uning diniy va ma‘naviy qadriyatlarini yashatadi. Shu bilan birga, arab tilidagi asarlar va manbalar jahonda tarqatilayotgan bilimlarni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## Asosiy qism

Hozirgi kunda Arab dunyosi global iqtisodiyotda faol ishtirok etmoqda, shu bilan birga, arab tili manbalari tadqiqotlar, dasturiy ta'minot va texnologiya sohalarida davlatlararo hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Arab tilining bilim tarqatishdagi roli ko‘plab xalqaro tashkilotlar va ilmiy markazlar tomonidan tan olinadi, bu esa uning global ma‘noda ahamiyatini oshiradi. Shuningdek, arab tilidagi adabiyot va san’at butun dunyoda e‘tibor qozonmoqda. Arab shoirlari va yozuvchilar o‘z asarlari orqali turli millatlarning madaniyatlarini birlashtirib, yangi qarashlar va g‘oyalarni taqdim etmoqda. Bu jarayon, arab tilining zamonaviy madaniy arena bo‘yicha mavjudligini mustahkamlab, xalqaro madaniyatlar o‘rtasida muloqotni oshirmoqda.

Arab tili manbalari, shuningdek, moliya va savdo sohalarida ham o‘z o‘rnini egallaydi. Arab mamlakatlarining boy tabiiy resurslari va energiya sohasidagi ishtiroki

xalqaro savdo aloqalarini yanada rivojlantirishga yordam bermoqda. Arab tilidagi iqtisodiy tahlillar va izlanishlar, shuningdek, moliyaviy bozorlar va investitsiyalar haqida muhim ma'lumotlar taqdim etadi. Bu ma'lumotlar mamlakatlararo iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Neft va tabiiy gaz zahiralariga boy bo'lgan 22ta arab davlatlarining rasmiy hujjatlari arab tilidadir. Bundan tashqari, arab tilidagi ilmiy va akademik manbalar xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etayotgan mutaxassislar uchun muhim ahamiyatga ega<sup>1</sup>.

Ilm-fan va texnologiyadagi yangiliklarni tarqatish va tadqiq qilish arab tilida amalga oshiriladi, bu esa turli sohalar bo'yicha global hamkorlikni kuchaytiradi. Arab tili global ma'lumot almashinuvi va innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, arab tilida yaratilayotgan san'at asarlarini ham e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Zamonaviy arab san'atkorlari o'z asarlari orqali jahon san'atiga yangi nafas kiritib, madaniy huquqlar va ijtimoiy masalalarga e'tibor qaratishmoqda. Roqni Hayrizoda, Marokashlik Buchra Haliliy kabi rassomlarning sa'nat asarlari New York muzeyida saqlanadi. Bu jarayon, arab tilini nafaqat akademik sohada, balki madaniyat va san'at sohasida ham global platformada tanitishga yordam bermoqda. Shuningdek, arab tilidagi adabiyotlar, shuningdek, tarixiy manbalar xalqaro tadqiqotlar va ta'limda katta ahamiyatga ega. Arab tilidagi qadimiy matnlar va tarixiy asarlar insoniyat tarixining boy qismlarini o'z ichiga oladi. Bu manbalar zamon o'tishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda, ilmiy izlanishlar va ta'lim jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Arab mamlakatlarining iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishi, asosan, ularning resurslari va siyosatiga bog'liq.

Moliya va savdo sohasidagi arab tilidagi manbalarning mavjudligi global investorlar va tadqiqotchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ular nafaqat iqtisodiy ma'lumotlarga, balki mintaqaviy strategiyalar va xaridlar bo'yicha tegishli ma'lumotlarga ham egalar. Akkad tili va arab san'atining global va madaniy aloqalari doirasida rivojlanishi, madaniyatlararo ko'priklarni yaratmoqda. San'at va madaniyat orqali boshqalar bilan bog'lanish, arab tilining yanada kengroq tarqalishiga sabab bo'layotgan bir jarayondir. Bu jarayon, arab tilidagi yaratuvchanlik va fikrlar almashinuvi uchun yangi maydonlar ochmoqda.

Arab tili, Qu'roni Karimning tili sifatida, asrlar davomida nafaqat diniy balki ilmiy va madaniy sohalarda ham muhim rol o'ynab kelmoqda. Hozirgi davrda arab tilidagi manbalar global bilim va texnologiyalar almashinuvida, akademik tadqiqotlarda va diplomatiyada katta ahamiyatga ega. Arab tilining ahamiyati quyidagilarda ko'rindi:

1. Diniy va madaniy ahamiyati: Arab tili musulmon dunyosi uchun muqaddas til hisoblanadi va Qur'oni Karimni o'qish va tushunishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tilda yozilgan diniy asarlar va tafsirlar musulmonlarning kundalik hayoti va diniy marosimlarida bevosita qo'llaniladi. Masalan, Al-Muqaddasiyning Ahsan at-Taqasim fi Marifat al-Aqalim va Al-Baladhuriyning Futuh al-Buldan kabi tarixiy asarlar Islom madaniyati va tarixi haqida keng ma'lumotlarni taqdim etadi.

<sup>1</sup> uz.m.wikipedia.org [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Neft\\_qazib\\_olish\\_bo%CA%BBichcha\\_davlatlar\\_ro%CA%BBxati](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Neft_qazib_olish_bo%CA%BBichcha_davlatlar_ro%CA%BBxati)

2. Ilmiy va akademik ahamiyati: O'rta asrlarda arab olimlari tarafidan yozilgan asarlar, jumladan Ibn Sino, Al-Farobi va Ibn Rushd, Ibn Nafis, Ibn Xaysam, kabi shaxslar tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar dunyo ilmiy merosining ajralmas qismiga aylangan. Bugungi kunda ko'plab ilmiy maqolalar va dissertatsiyalar arab tilida chop etilmoqda, bu esa xalqaro ilmiy aloqalarni mustahkamlashga yordam bermoqda.

3. Diplomatik va siyosiy ahamiyat: Arab tili Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning rasmiy tillaridan biri hisoblanadi<sup>2</sup>. Bu arab tilini bilishni xalqaro diplomatiya va siyosatda muhim ko'nigmaga aylantiradi. Arab dunyosidagi davlatlar bilan samarali muloqot qilish va hamkorlikni rivojlantirish uchun arab tilini bilish zarur.

4. Texnologiyalar rivojida ahamiyati: Raqamli davrda arab tilidagi manbalar internet orqali keng tarqalib, bilim almashinushi tezlashmoqda. Google, Microsoft kabi kompaniyalar arab tilida xizmat ko'rsatar ekan, axborot tarqatuvchi vositalar arab tilida ham keng mavjud bo'lib, rivojlanmoqda.

### **Xulosa**

Arab tilidagi manbalar hozirgi davrda ilm-fan, madaniyat, iqtisodiyot va diplomatiya kabi sohalarda katta ahamiyatga ega. Ular madaniyatlararo muloqotni rivojlantirib, global innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi va ta'lim, moliya hamda savdo sohalarida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, arab adabiyoti, san'ati va tarixiy manbalari madaniy hamkorlikni mustahkamlab, xalqaro maydonda tilning o'rnini yanada mustahkamamoqda.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati**

1. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019.
2. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2024.
3. Ali, M 'Arab Science and Its Influence on the Middle Ages and Renaissance'. Cambridge University Press.2020
4. El Fadl, K. A. 'The Great Theft: Wrestling Islam from the Extremists'. Harper San Francisco.2005
5. uz.m.wikipedia.org
6. un.org

<sup>2</sup>un.org <https://www.un.org/en/our-work/official-languages#:~:text=There%20are%20six%20official%20languages,%2C%20French%2C%20Russian%20and%20Spanish>